

# S H A R T N O M A

2022 й. «30» 9

142-12-218-MT/2022-son

Tuproqqa'l'a.

Bundan buyon matnda «Sotuvchi» deb ataluvchi **“Xorazm-mebel-invest”** MCHJ nomidan rahbari R.Xudayberganov bir tomondan hamda bundan buyon matnda «Xaridor» deb ataluvchi Tuproqqala tuman MTB nomidan rahbari Sh.Ruziboyev ikkinchi tomondan quyidagilar to‘g‘risida shartnoma tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Sotuvchi" o‘ziga tegishli mol-mulkni "Xaridor"ning mulki qilib (doimiy xo‘jalik yurituvchi yoki butunlay boshqaruviga) beradi, "Xaridor" esa mol-mulkning haqi to‘langandan keyin olish majburiyatini oladi.

1.2. **Moliyalshirish manbasi: bydjet 100022860332217091100251017**

t.r.	Mahsulot turi	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
1	Payola chinni (choy)	Dona	120	7 000	840 000
2	Tarelka chinni 0.8	Dona	120	15 000	1 800 000
3	Tarelka chinni 0.7	Dona	120	15 000	1 800 000
4	Stakan	Dona	120	10 000	1 200 000
5	Piyola chinni (ovqat)	Dona	120	7 000	840 000
	<b>JAMI</b>		<b>600</b>	<b>x</b>	<b>6 480 000</b>

## 2. SHARTNOMA NARXI, BAHOSI, SUMMASI (QIYMATI)

2.1. Shartnomaning umumiy qiymati: **6 480 000 (Olti million to‘rt yuz sakson ming)** so‘m 00 tiyinni tashkil qiladi. Shundan **6 480 000 (Olti million to‘rt yuz sakson ming)** so‘mi byudjet mablag‘i hisobidan qolgan **0 (-)** so‘mi byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan.

## 3. TO‘LOV SHARTLARI

3.1. «Xaridor» «Sotuvchidan» hisob-raqamiga shartnomada ko‘rsatilgan mahsulot miqdori turi yetkazilib berilganidan keyin summasining **30%** foizini oldindan **5** bank ish kuni ichida o‘tkazishni o‘z zimmasiga oladi. Qolgan **70%** foizi mahsulot yetkazib berilgandan keyin o‘tkazishni o‘z zimmasiga oladi.

3.2. To‘lov turi: **to‘lov topshiriqnomasi**

## 4. SHARTNOMANING BAJARILISH MUDDATI

4.1. Shartnomaning 1.2-bandida ko‘rsatilgan mahsulot «Xaridor»ga shartnoma imzolangandan keyin 7 kun vaqt ichida berilishi shart.

4.2. Shartnomaning amal qilish muddati: G‘aznachilik bo‘limida ro‘yxatda o‘tgandan 2022 yil " 31 " dekabrgacha o‘z kuchida qoladi.

## 5. TARAFLARNING HUQUQLARI

5.1. «Xaridor»ning huquqlari:

5.1.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan maxsulotlarni o‘z vaqtida va sifatli maxsulotni yetkazishni «Sotuvchi»dan talab qilishga;

5.1.2. «Sotuvchi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

5.2. «Sotuvchi»ning huquqlari:

5.2.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan maxsulotlar uchun oldindan xaq to‘lashni va amaldagi shartnoma va qonun xujjatlarida belgilangan tartibda hisob-kitoblarni amalga oshirishni «Sotuvchi»dan talab qilishga;

5.2.2. «Xaridor»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, mahsulotni qabul qilishda asossiz ravishda rad qilish natijasida yetkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

## **6. TARAFLAR MAJBURIYATI**

6.1. «Sotuvchi» majburiyati:

6.2. Shartnomada ko‘rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o‘z vaqtida «Xaridor»ga mahsulotni yetkazib berish;

6.2. «Xaridor» majburiyati:

6.2.1. Tegishli darajada sifatlari bulmagan maxsulot kelib tushgani aniklangandan keyin bi haqda dalolatnama yozilib, 24 soat ichida "Sotuvchi" ni ogohlantirish.

6.2.2. Mahsulotning bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to‘lash.

## **7. TARAFLAR JAVOBGARLIGI.**

7.1. Mahsulot yetkazib berish vaqtida shartnoma bandlariga to‘liq rioya qilmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to‘liq qoplaydi va kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5% miqdorda penya to‘laydi, lekin 50% miqdordan oshib ketmasligi kerak.

7.2. “Sotuvchi” “Xaridor”ga maxsulotni o‘z vaqtida yetkazib berilmagan har kuni uchun mahsulot baxosidan 0,5% penya to‘laydi.

7.3. But bo‘limgan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi): tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o‘zga muddat belgilangan bo‘lmasa, o‘n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart; yetishmayotgan qismlar qiymatini qo‘sghan holda, yetkazib beruvchidan but bo‘limgan tovarlar qiymatining 20 % miqdorida jarima undirishga haqli.

7.4. Tegishli darajada sifatlari bajarilmagan mol-mulk o‘z vaqtida almashtirishdan bosh tortsa, “Sotuvchi” 20 % miqdorda jarima to‘laydi.

7.5. Mahsulot uchun “Xaridor” o‘z vaqtida yoki to‘liq to‘lovni amalga oshirmagan bo‘lsa, kechiktirilgan hark un uchun mablag‘ miqdoridan 0,4 % penya to‘laydi, lekin 50% miqdordan oshib ketmasligi kerak.

7.6. “Sotuvchi” omboridan o‘z vaqtida mol-mulk olib chiqib ketilmasa, agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko‘zda tutilgan bo‘lsa, “Xaridor” har bir o‘tkazib yuborilhan kun uchun “Sotuvchi”ga omborda chiqqanligidan kelib chiqqan zarar uchun 0,5 % miqdorda jarima to‘laydi.

7.7. Jarima to‘lash taraflarni shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## **8. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA MAJBURIYATLARI**

8.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

8.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefonni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

8.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin

## **9. FORS-MAJOR HOLATLARI**

9.1. Taraflar shartnoma shartlarini bajarish paytida majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan, bajarish uchun yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda va muayyan sharoitlarda (tabiiy ofatlar, ob - havo, shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi baxtsiz voqeа va hodisalarning yuz berishi, urush harakatlari, davlat hokimiyat organlari qarorlari, vazirliklarning barcha uchun majburiy normativ hujjatlari va boshqalar) oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo'lmanligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

9.2. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzlusiz davom etsa, taraflar, bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

## **10. NIZONI HAL QILISH TARTIBI**

10.1. Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

10.2. Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

## **11. SHARTNOMANING O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI**

11.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo'ladi.

11.2. Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

## 12. BOSHQA HOLATLAR

12.1. Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo‘lib ikki nusxada tuzilgan.

12.2. Shartnoma byudjet mablag‘lari xisobidan tuzilganda G‘aznachilik bo‘linmalaridan ro‘yxatdan o‘tgandan keyin yuridik kuchga ega bo‘ladi.

## 13. TARAFLARNING YURIDIK MANZILGOHI VA TO‘LOV REKVIZITLARI

### «Sotuvchi»

Xorazm-mebel-invest MCHJ

Manzil: Hazorasp tumani  
Sanoat qishloqi

H/r: 2020 8000 8051 8319 2001  
MFO 00558  
Bank ATB Agrobank  
Hazorasp filiali

INN:307158422 OKONX:  
Tel.: 88-201-44-44  
**Rahbar:**  R.Xudayberganov




### «Xaridor»

Tuproqqala t MTB

Manzil: Tuproqqala t MTB

H/r: 100022860332217091100251017  
Bank Markaziy bank Toshkent sh  
MFO 00014

INN307302464 OKONX:



SH.Ruziboev

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

1.Loyihaning turi: Shartnoma

2.Loyihaning nomi: Mahsulot etkazib berish (sotib olish) shartnomasini tuzish to‘g‘risida

Bir tomondan “Sotuvchi” deb ataluvchi “Xorazm-Mebel-Invest” MCHJ nomidan rahbari R.Xudayberganov hamda “Xaridor” deb ataluvchi Tuproqqala tuman MTB nomidan rahbari Sh.Ruziboyev ikkinchi tomondan quyidagilar to‘g‘risida, ya’ni 5 turdagি jami 6 480 000 (Olti million to‘rt yuz sakson ming) so‘mlik chinni mahsulotlarini etkazib berish (sotib olish) shartnomasini tuzish to‘g‘risida.


Shuningdek, ushbu shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagи “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi 670-I-sonli Qonunining 3, 10 hamda 21-moddasi talablari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 437-438-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6313-son Farmoni talablari assosida ishlab chiqilgan hamda Tuproqqal'a tumani yuridik xizmat ko‘rsatish markaziga yuborilgan.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

Tuproqqal'a tumani Maktabgacha ta’lim bo’limi tomonidan 2022 yil 28 sentyabr kuni ishlab chiqilgan va 2022 yil 28 sentyabr kuni dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Tuproqqal'a tumani yuridik  
xizmat ko‘rsatish markazi  
boshlig‘i**



**X.Iskandarov**

2022 yil 29 sentyabr